«BIOLOGIYANI O’QITISHNING UMUMIY MAZMUNI VA METODLARI»

Masharipova Guli Muxtarbekovna
Xiva tuman 12-umumiy o'rta ta'lim maktab
Biologiya fani o'qituvchisi

Annatatsiya:*Biologiya oʻquv fanining mazmuni dialektik-materialistik nuqtai nazardan yoritilishi, oʻquvchilar tomonidan organik olam va unda sodir boʻladigan oʻzgarishlarni tushunibgina qolmasdan, balki tirik organizmlarda boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyati.*

Kalit so'zlar: *Biologik sistema,ekologik sistsmalar,eʻtiqodlar yigʻindisi, ilmiy tasavvurlar.*

Biologiyani oʻqitishda avvalo, oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun biologiyaning asosiy gʻoya, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari, amaliyot, halq xoʻjaligining turli tarmoqlarida tutgan oʻrni? biologik bilimlarni oʻzlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish, insonning tabiat va jamiyatga ongli munosabatini tarkib toptirish, shuningdsk kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bogʻlangan xolda taʻlim-tarbiyaviy tizim vujudga keltiriladi.Mazkur tizim oʻzida oʻquvchilar tomonidan oʻquv fanlari mazmunidagi bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkam oʻzlashtirishlari barobarida, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini mujassamlashtiradi.

Biologiya oʻquv kursini oʻrganish tabiatdagi biologik obʻektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayot faoliyati qonuniyatlarini tushunishga olib keladi. Bu bilimlar oʻquvlarning ilmiy dunyoqarashi va eʻtiqodlari tizimini tashkil etadi.Oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashi biologik qonuniyatlarni «tabiat-inson jamiyat» munosabatlarining tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan tushunishga asoslanadi.«Ilmiy dunyoqarash» tushunchasiga biologiya oʻqitish metodikasining turli manbalarida turlicha yondoshilgan. Jumladan,

B.E.Raykov ilmiy dunyoqarash tushunchasini «dunyo haqidagi bilimlar majmuasi» V.V. Vsesvyatskiy «tabiatga nisbatan toʻgʻri qarashlar majmuasi», N.M.Verzilin va V.M.Korsunskaya «insonning atrof muxitga munosabati, jamoa va jamiyatdagi xulq-atvorini aniqlaydigan ilmiy tasavvurlar va tushunchalar tizimi» deb taʻrif berganlar.Ushbu fikrlarga didaktikaning tarixiy va mantiqiy rivojlanishning metodologik qonuniga muvofiq yondoshildi, yaʻni mazkur olimlar tadqiqot oʻtkazgan vaqtdagi fan va ijtimoiy rivojlanish darajasiga moyil boʻlib, oʻsha davr uchun eng muhim eʻtiqod sanalgan.Hozirgi axborotlar globallashgan va respublikamiz mustaqillikka erishgan davrda yuqorida kayd etilgan fikrlar mazmunan eskirganligini qayd etish zarur Pedagogik ensiklopediyada «ilmiy dunyoqarash falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, ahloqiy , estetik ideallar va eʻtiqodlar yigʻindisi, insonning moddiy borliq haqidagi qarashlari majmuasi xisoblanib, shular asosida inson

tabiat va ijtimoiy muhitga o‘z munosabatini namoyon etadi» deb ta‘rif berilgan.Uzluksiz ta‘lim tizimida biologiyani o‘qitishning uzviyligi va izchilligini ta‘minlash maqsadida tayyorlangan va tajriba-sinovdan o‘tkazilgan me‘yoriy xujjatlarni tahlil qilish mazkur o‘quv fanini o‘qitishda quyidagi o‘zaro bog‘lanuvchi uch yo‘nalishga bo‘linganligini ko‘rsatdi:

Organizm - biologik sistema;

Ekologik sistsmalar;

Organik olam evolyutsiyasi;

O‘quvchilarning barcha biologik o‘quv fanlaridan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini umumlashtirish bilan bir qatorda, bilimlarni tizimga solish, ilmiy dunyo qarashni shakllantirish va rivojlantirish kabi muhim vazifalarni hal etishi maqsadga muvofiq.Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga asos bo‘ladigan tushunchalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Biologiya o‘quv fanining mazmuni dialektik-materialistik nuqtai nazardan yoritilishi, o‘quvchilar tomonidan organik olam va unda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni tushunibgina qolmasdan, balki tirik organizmlarda boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyati, mazkur jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar, tirik organizmlarning yashash muhitiga moslashishi va hilma-hilligining sabablarini anglaydilar.O‘qitishning bu shaklda tashkil etilishi o‘quvchilarning faktlar, hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi ustida mulohaza yuritishiga yordam beradi. Mulohaza yuritish talabalarning o‘quv materialini ongli va puxta o‘zlashtirishiga imkon yaratib, ularning ilmiy dunyoqarashi, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.Hulosa qilib aytganda, biologiyani o‘qitishda, o‘quvchilarning barkamolligini ta‘minlash, tabiat va ijtimoiy muhitga nisbatan ongli munosabatini namoyon etishi, falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, axloqiy, estetik ideallar va e‘tiqodlar yig‘indisi, shuningdek, moddiy borliq haqidagi qarashlariga muayyan o‘zgartirishlar kiritish, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida pedagogik va axborot texnologiyalardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish zarur.

FOYADANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.A.T.G‘ofurov ,Tolipova J. umumiy biologiyani o‘qitishning norasmiy usul va shakllari,Toshkent 1990 y.45 b.

2. A.T.Gofurov,M.Maxkamov –Botanikadan ekskursiyalar o‘tkazish metodikasi, O‘qituvchi 1991 y.22b.

3. A.T.Gofurov,S.Xabirova Biologiyadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar O‘qituvchi ,1990y. 105b.

4. Mavlonov O., Azimov J. Zoologiya. Akademik litseylar uchun darislik. Toshkent: O‘zbekistan Milliy ensiklopediyasi, 2009. - 320 b.

MUALLIM— MILLAT YUZI

Musurmonova Dilshoda Dadajon qizi
Mustaqil izlanuvchi shaxs

Annotatsiya: *Ushbu maqolada: Ustozlarning jamiyatdagi o'rni, Yaxshi o'qituvchi qanday bo'ladi, Ustozlarning hayotimizdagi ahamiyati yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *ustoz, muallim, hayot, sabr, matonat, jamiyat.*

Ustozlar biz uchun yaratgan tomonidan beriladigan alohida ne'matdir. Aynan ular millatni ulug'likka yetaklaydilar, insonni yetuk qiladilar va dunyoni yaxshi tomonga o'zgartiradilar. Aynan o'qituvchilar bizga qalam qilichdan muhimroq ekanligini o'rgatadi. Ular jamiyatda hurmatga sazovordir, ular insonlarning turmush darajasini oshiradi. Ular odamni tarbiyalaydi va insoniy fazilaylarni o'rgatadi, yaxshi jamiyat qurishga hissa qo'shadi.

Ustozlarning jamiyatdagi o'rni

Ustozlar jamiyatga va shogirdlar, o'quvchilar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular, shuningdek, ota-ona hayotida katta ahamiyatga ega, chunki ota-onalar o'z farzandlari uchun o'qituvchilardan ko'p narsani kutishadi. Biroq, har bir sohada bo'lgani kabi, yaxshi ham, yomon ham ustozlar bor. Yomon o'qituvchilar unchalik ko'p bo'lmasa-da, ularning soni sezilarli. Yaxshi ustoz yomon ustozda bo'lmagan fazilatlarga ega. Yaxshi ustoz yaxshi jamiyat tuzsa, yomoni o'sha jamiyatni buzadi. Yaxshi ustoz o'quvchini kasbga, ilmga bo'lgan mehrini oshirsa, yomoni uni batamom yo'q qilib yuborishi mumkin.

Yaxshi o'qituvchi

Yaxshi ustozni topish qiyin emas, lekin qayerga qarash kerakligini bilish zarur. Yaxshi o'qituvchilar ta'lim berish uchun oldindan yaxshi tayyorgarlik ko'rishgan bo'ladi. Maksimal mahsuldorlikni ta'minlash uchun ular har kuni o'z harakat rejasini tayyorlaydilar. O'qituvchilar hamma narsadan, xususan, ular ixtisoslashgan fanlardan juda ko'p bilimga ega. Yaxshi o'qituvchi o'z bilimini doimiy ravishda kengaytirib boradi va o'z o'quvchilariga yaxshi, zamon talabiga mos ta'lim berishda davom etadi.

Xuddi shunday, yaxshi o'qituvchi har qanday qiyinchilikda bizga yordam beradigan do'stga o'xshaydi. Yaxshi o'qituvchi o'ziga xos va umumiy bo'lmagan individual o'quv jarayonini yaratadi. Bu talabalarni mavzuni yaxshiroq o'rganishga undaydi. Boshqacha qilib aytganda, yaxshi o'qituvchi o'z o'quvchilarining samarali o'qishini va yaxshi baho olishini ta'minlaydi.

Eng muhimi, yaxshi o'qituvchi - bu nafaqat ilmiy ko'rsatkichlarimizga, balki umumiy rivojlanishimizga e'tibor qaratadigan kishi. Shundagina o'quvchi haqiqatan ham o'sishi mumkin. Shunday qilib, yaxshi o'qituvchilar o'z o'quvchilarining muammolarini tushunishadi va ularni to'g'ri hal qilishga harakat qilishadi.